

RUS BOSQINCHILARINING TERMIZGA KIRIB KELISHI TARIXI HAQIDA

Toshboltayev Islom Bahodir o‘g‘li

IIV Surxondaryo akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi.

+998937669908. islomtoshboltayev217@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14174676>

Annotatsiya. Maqolada Termizning o‘tmishini o‘rganish hamda u to‘g‘ridagi ilmiy adabiyot tarixnavisligi har bir ilmiy tadqiqot uchun alohida mavzu bo‘lishi mumkin bo‘lgan qator jihatlarni o‘z ichiga oluvchi g‘oyat keng ilmiy ma‘lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ekspeditsiya, arxeologik komissiya, tarixnavislik, front, Termiz garnizoni, mustabid tuzum.

ABOUT THE HISTORY OF THE RUSSIAN INVADER'S ENTRY TO TERMIZ

Abstract. The article covers the study of the past of Termiz and the historiography of scientific literature about it, which includes a number of aspects that can be a separate topic for each scientific research.

Key words: Expedition, archaeological commission, historiography, front, Termiz garrison, absolute regime.

ОБ ИСТОРИИ ВХОДА РОССИЙСКИХ ОККУПАНТОВ В ТЕРМИЗ

Аннотация. Статья посвящена изучению прошлого Термеза и историографии научной литературы о нем, которая включает в себя ряд аспектов, которые могут составлять отдельную тему для каждого научного исследования.

Ключевые слова: Экспедиция, археологическая комиссия, историография, фронт, Термезский гарнизон, абсолютный режим.

XX asr boshida Termiz hayotida monarxiya tartiboti yemirilishi, Amudaryo uzra qurilgan shaharni o‘z ichiga olgan Buxoro amirligi tugatilioshi bilan yakunlangan dramatik voqealar yuz berdi. Jahonda monarxiya rejiminining tobora chuquqlashib borayotgan tanazzuli xal qiluvchi tashqi-siyosiy omil bo‘lib, u Buxoro amirligiga qo‘shti yirik davlatlar-Rossiya imperiyasi va Turkiyada portlash hususiyatini kasb etdi.

Bu mustabid davlatlarda Yevropa va Amerika mamlakatlari ta’siri ostida jamiyatni modernizatsiyalash uchun islohotchilik harakati avj oldi. 1905-1907-yillardagi Rossiya inqilobining yosh turklarning o‘z monarxiyasiga qarshi 1908-yilgi inqilobining aks-sadosi Buxorogacha yetib keldi.

1918-yil martda Kogondan Termizgacha bo‘lgan masofada temir yo‘l buzib tashlandi, uning yana tiklanmasligi uchun juda ko‘p temir yo‘l izlari qayiqlarda Amudaryo orqali Afg’onistonga jo‘natildi. Termiz Turkistonning boshqa shaharlaridan uzilib qoldi. Shahar aholisi hayotiga katta xavf tug’ildi, aholi turli yo‘llar bilan shaharni tark eta boshladi. 1918-yil yozida bu yerda qolgan oilalar soni 400 dan (1500 nafar odam) oshmasdi. Qolgan aholi sarosimada qal’aga kirib oldi, chunki qal’a devorlari ortida amir va uning Sheroboddagi begi-To‘xtamish hukmronligi davom etardi[4. 128].

Shahar kengashi Termizda qolgan aholiga murojaat qilib, shaharni amir qo‘shinidan mudofaa qilishga da’vat etdi. Shoshilinch tarzda Termiz mudofaasi bo‘yicha qizil gvardiyachilar ottryadlari tuzildi, ular 1918-yil o‘rtasigacha mudofaa xizmatida bo‘lishdi, so‘ng shu yil iyulda rasman tarqatib yuborildi-da ularning negizida Termiz garnizonining qizil gvardiyachi qismlari tuzildi.

Moskvada muxojirlikda bo‘lgan Fayzullo Xo‘jayev inqilobchi yosh Buxoroliklarning markaziy byurosini tuzdi. BKP RKP(6) dasturini to‘liq qabul qilgan bo‘lsa, F.Xo‘jayevning 1920-yil 14-iyunida yosh buxoroliklar konferensiyasida qabul qilingan dasturi mohiyatan shariatga asoslangan bo‘lib uni “adolat sharhlovchisi va kambag’allar ximoyachisi” deb e’lon qildi[1. 131].

Ayni mahalda 1919-yil sentabrida tuzilgan Rossiya hukumatining Turkiston ishlari bo‘yicha komissiyasi (Turkkomissiya) Buxoro amiriga qarshi aperatsiya o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rmoqda edi. Amir hukumati ham, o‘z navbatida, avj olib borayotgan voqealarga tayyorgarlik ko‘ra boshladi, jumladan yosh buxoroliklar va kommunistlarga nisbatan keskin choralar ko‘rdi.

Amirlik poytaxtining o‘zida 1920-yil martda 500 nafargacha odam hibsga olinib, bir qismi qatl qilindi.

Bu orada Termiz uch yil tashqi olamdan ajralib qoldi, chunki Surxandaryoda 1920-yil avgustiga qadar sovet hokimiyati faqat Termiz va Pattakesadagina hukm surdi.

1920-yil 28-avgustda Turkkomissiyaning bolshevik raxbariyati Buxoro ameriga qarshi jangovar operatsiyani boshladi.Bu vaqtga kelib bolsheviklar amirlikning ko‘plab shaharlarida drujinalar tuzishdi.Bu drujinalarda jami 5000 yaqin,shu jumladan Termizda 200 jangchi bor edi.

1920-yil 2-sentabrida amirlik poytaxti Eski Buxoro qizil armiya tomonidan butkul bosib olindi va turkkomissiya xamda Turkiston qomondonligi Buxorodagi vaziyatni qo‘lga olishdi.

Bu yerdan Termiz ijroya organlariga navbatdagi ishlar to‘g’risida ko‘rsatmalar yuborila boshlandi.

6-oktabrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) e’lon qilingach, sobiq Buxoro amirligining chekka joylarida, shu jumladan Surxandaryoda ham, sovet hokimiyati organlari tuzila

boshladi. Termiz siyosiy mamuriy markaz bo‘lib qoldi, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy hayotni, uning iqtisodiyoti va madanyatining rivojlanishining idora qiladigan tashkilotlar shu yerda jamlandi[2. 24].

Biroq yangi davlat apparatini bolshevikcha hamda bolsheviklar Rossiyasi ssenariyasi bo‘yicha tuzishda asrlar davomida yuzaga kelgan mahalliy va milliy an'analar pisand qilinmadi.

Surxondaryo hududida tog’lik joylarda sovet hokimiyatiga qarshilik ko‘rsatila boshlandi , uning birinchi bosqichida maxalliy aholining ko‘pchiligi isyonchilarga hayrihohlik bildirib, qo‘llab-quvvatladi.

Sovetlarga qarshi harakatni Ibrohimbek boshqardi. 1924-yil sentabriga kelib u mayda otryadlarni birlashtirdi hamda Termizga yurishni boshladi. Ushbu guruxga qarshi kurashish uchun Drozdovskiy qo‘mondonligida maxsus brigada tuzildi. 25-sentabrda yuqori Ko‘kaydi qishlog’i yaqinida bo‘lib o‘tgan og’ir jangda Ibrohimbek otryadlari mag’lubiyatga uchradi, qo‘rboshi o‘zi esa Surxon daryosi bo‘ylab yuqoriga qarab chekindi va shundan keyin ochiq jangga kirishmadi.

Biroq Surxondaryo hududida bolsheviklar hokimiyatiga qarshilik ko‘rsatish harakati 30-yillarning boshidagina to‘xtadi.

Bu davrda Termiz shahri xo‘jalik yuritishning sotsialistik tizimi, rejali tizim hamda xalq xo‘jaligini qattiq markazlashtirilgan boshqarish negizida rivojlandi.

Ilgari Shamsiddinov va Matchonboyevga qarashli bo‘lagan paxta tozalash zavodlari tiklandi. Termiz atrofida paxta maydonlari kengaytirildi. Ayni mahalda irrigatsiya tarmog’i va agro texnika qayta qurildi.

1924-yilda Termiz-Toshkent havo yo‘li ishga tushirildi. Bir yil o‘tgach Termiz –Kobul xalqaro havo yo‘li ochildi , lekin yo‘lovchi tashish ikkinchi jahon urushi arafasidagina boshlandi. 1925-yilda 248 kilometrli Termiz –Dushanbe temir yo‘li ishga tushirildi. Ushbu temir yo‘l bo‘ylab qisqa vaqt ichida ishlab chiqarish kuchlari rivojlana boshladi. 1927-yilda Termizda elektr stansiya binosi barpo etildi hamda quvvati 450 ot kuchi bo‘lgan ikkita dizel dvigatel o‘rnatildi. Qisqa vaqt ichida go‘sht kombinati, non zavodi, qurilish ashyolari ishlab chiqaradigan korxonalar, yog’ zavodi foydalanishga topshirildi[3. 74].

1926-1927-yillarda Surxondaryoga Germaniyada chiqarilgan “Fordzon”markazi 13 traktorning keltirilishi hamda mintaqada sakkiztata mashina- traktor stansiyasining ochilishi malakali mexanizator kadrlar tayyorlanishini kuchaytirdi. Termizda shunday kadrlarni tayyorlash kurslari ochildi. Shaharni obodonlashtirish, uy-joy va sanoat korxonalari qurish bo‘yicha ham katta ishlar bajarildi.

Savodsizlikni tugatish borasida ulkan ish amalga oshirildi. 1921-yilda Termizda ta’lim rus tilida ollib boriladigan maktab ochildi, unda oltita sinf, 213 o‘quvchi hamda olti o‘qituvchi bor

edi. Ikki yildan keyin esa 56 o‘quvchi va uch o‘quvchiga mo‘ljallagan M.Behbudiy nomli birinchi o‘zbek maktabi ochildi. 1924-yilda 23-sonli maktabga 150 o‘quvchi jalb etildi. Bu davrda shaharda ta’lim sohasida bir qancha islohot o‘tkazildi, u asosan sovet mafkurasini shakllantirishga yo‘naltirilgan edi.

1925-yil 21-noyabrda Termiz uezdi xalq ta’limi kollegiyasi “Termizda o‘zbek qizlar uchun birinchi maktabni ochish to‘g‘risida ”qaror qabul qilindi.

1925-yil 25-noyabrda birinchi bosqich maktablari o‘qituvchilarining Termiz shahrida bo‘lib o‘tgan birinchi kengashida maktablarni ikkinchi bosqichga o‘tkazish to‘g‘risida navbatdagi qaror qabul qilindi.Ushbu qarorga muvofiq shaharda uch oylik pedagogika kursi tashkil qilinib, 1926-1927 -o‘quv yilda u 9 oylik kursga aylantirildi.Ta’lim olgan 50 kishidan 43tasi o‘qishni muvaffaqiyatli tugatib, qishloq maktablariga ishlash uchun jo‘nab ketdi. 1928-1929-o‘quv yilda Surxondaryo tarixida muxim voqeа bo‘ldi- birinchi o‘rtа maxsus o‘quv yurti –Termiz pedagogika texnikumi ochildi va u hozir ham xalq ta’limi uchun pedagog mutaxasilar tayyorlaydi.

1934-yildan boshlab respublika janubida bolalar va katta avlod kishilari uchun umumiy ma’lumot olishga sharoit yaratildi.

Shahar aholisiga tibbiy yordam ko‘rsatish choralar ko‘rildi. 1924-yilda Termizda viloyat sog’lijni saqlash bo‘limi tuzildi. Dastavval shaharda 150 o‘rinli harbiy gospital ochildi. 1925-yil fevralda harbiy qism mahalliy aholi uchun 25 o‘rinli kasalxonasi ochildi, unda harbiy vrach va shifokorlarning yordamchisi ishlab turdi. Keyinchalik shu kichkina kasalxonasi negizida vohadagi eng katta birinchi viloyat kasalxonasi vujudga keldi.

1935-1936-yillarda sog’lijni saqlash bo‘limi kengaydi, natijada viloyatda, shu jumladan Termiz shahrida 220 o‘rinli kasalxonasi, 5 ambulatoriya, ikkita ixtisoslashgan dispanser, zararsizlantirish stansiyasi va 4ta dorixona ishga tushirildi .

1929-yilda Termiz rayon bo‘ysunishidagi shaharga aylantirildi. U vaqt o‘tishi bilan iqtisodiy jihatdangina yirik shahar bo‘lib qolmay, balki O‘zbekistonning janubidagi yirik madaniy markazga aylandi. Chunonchi 1933-yilda bu yerda O‘lkashunoslik muzeyi ochildi. 1935-yilda drama teatri, kinoteatrlar, 1936-yilda esa Termiz shahar kutubxonasi, 1939-yilda Termiz shahar hayvonot bog‘i ochildi va ular tez orada aholi uchun madaniy markazga aylandi. Keyinchalik Termiz davlat bilim yurti, bolalar kutubxonasi va ko‘rlar hamda ko‘zi ojizlar uchun kutubxona, shuningdek boshqa madaniy muassasalar ishga tushirildi.

1924-yil 12-iyulda partiya organlari “Orta Osiyo Respublikalari milliy chegaralanish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Bu qaror shu yilning kuzidayoq amalda bajarildi. Surxondaryo Buxoro viloyatiga okrug sifatida kiritildi. 1941-yil 6- martdagi farmon bilan u markazi Termiz shahri bo‘lgan Surxondaryo viloyatiga aylantirildi.

Ikkinci jahon urushi respublikaning, shu jumladan Termiz shahrining tinch rivojlanishiga rahna soldi. Butun xalq xo‘jaligini harbiy izga solish eng muhim vazifa bo‘lib qoldi[4. 125].

Butun O‘zbekiston singari ko‘hna Termiz ham qisqa muddatda harakatdagi armiya ortidagi mustahkam bazaga aylanib qoldi. Jangohlar ancha olisdagi termizliklar o‘sha og‘ir yillarda dushman ustidan g`alab qozonish yo‘lida yashab ishlashdi. Termiz shu davrdagi murakkab masalalarni xal qilish bo‘yicha Surxondaryo viloyatining shtabga aylandi.

Urushning dastlabki yillaridayoq harakatdagi armiyaga yuborishni so‘rab harbiy komissariatlarga, jamoat tashkilotlariga ikki mimgandan ziyod arizalar tushdi. O‘sha paytda frontga ketganlar o‘rniga rahbar kadrlar, mexanizatorlar va boshqa mutaxassislar tayyorlashga katta e`tibor berildi. Urush yillarida 260 dan ziyod xotin-qizlar rahbarlik ishiga ko‘tarildi.

Mahalliy millat qizlarining o‘zidan 600 ga yaqin traktorchi va shafyor tayyorlandi. Front extiyojlari uchun ham mutaxasislar yetishtirila boshlandi. Qizil xoch va qizil yarim oy tashkilotlari tomonidan 25 sanitар drujinasi, 550 tibbiy hamshira tayyorlandi. Ularning ko‘pchilligi ko‘ngilli bo‘lib frontga jo‘nadi, 750 ta qiz esa donor bo‘lib qoldi.

Urush yillarida tank kolonnalari va samalyotlar qurish uchun mablag` yig`ish bo‘yicha jamg`armaga surxondaryoliklardan 45 million tushdi. Shaharning barcha millat vakillari ikkinchi jahon urushining barcha frontlarida jang qilishdi va shon-shuhuratga burkanishdi.

Minnatdor termizliklar janglarda halpk bo‘lganlar nomini muqaddas tutadilar. Ularning oilalariga g`amxo‘rlik ko‘rsatiladi.

REFERENCES

1. Цит. По: Краеведение Сурхандарьи (сборник ситетей). Т.: Узбекистан, 1989. С. 131.
2. Халияров Х., Быков Д., Блинников А. Сурхандарьинская область. Т.: Узбекистан 1974. С. 24.
3. Бухара-жемчужина востока). Т.: Шарқ, 1997. С. 74
4. Архив РФ. Ср. 130, оп. 2., д. 734. 128
5. Safar o‘g‘li R. M. TERMIZNING CHIG ‘ATOY ULUSI TARKIBIDAN MUSTAQILIKKA CHIQISH TARIXI HAQIDA. – 2023.
6. Safar o‘g‘li R. M. TERMIZ OBIDALARINING RUS TADQIQOTCHILARI TOMONIDAN O ‘RGANILISHI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – Т. 3. – №. 34. – С. 37-41.
7. Safar o‘g‘li R. M. The Study of The History of Termiz by Researchers //Genius Repository. – 2023. – Т. 26. – С. 24-27.

8. Raimov M. BOUT THE HISTORY OF THE INDEPENDENCE OF TERMIZ FROM THE CHIGATOY SHARE //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 1150-1154.
9. Raimov M. A NEW ERA IN THE STUDY OF TERM HISTORY //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 146-151.